

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.07/30.12.2019.YU.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

G‘AYBULLAYEV ALISHER ISMATOVICH

**OMONAT SAQLASH MUNOSABATLARINING FUQAROLIK-HUQUQIY
TARTIBGA SOLINISHI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации
Content of the doctoral (DSc) dissertation abstract

G‘aybullayev Alisher Ismatovich

Omonat saqlash munosabatlarining fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi..... 3

Гайбуллаев Алишер Исматович

Гражданско-правовое регулирование отношений по хранению 33

Gaibullaev Alisher Ismatovich

Civil-legal regulation of deposit keeping relations 64

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 71

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSs.07/30.12.2019.Yu.22.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

G‘AYBULLAYEV ALISHER ISMATOVICH

**OMONAT SAQLASH MUNOSABATLARINING FUQAROLIK-HUQUQIY
TARTIBGA SOLINISHI**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.4.DSc/Yu92 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasiga (www.tsul.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Imomov Nurillo Fayzullayevich**
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Nasriev Ilxom Ismoilovich**
yuridik fanlar doktori, professor

Choriyev Murodjon Shokirjonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Bozorov Sardor Soxibjonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Yuristlar malakasini oshirish markazi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 20-aprel soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1244-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar A.Temur ko‘chasi 13-uy. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 5-aprel kuni tarqatildi.

(2024-yil 5-aprelfagi 45-raqamli reestr bayonnomasi).

I.R. Rustambekov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

D.Yu.Xabibullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar nomzodi, professor

B.K.Xodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tovarlar logistikasi va ularning uzluksizligini ta'minlashda omonat saqlash shartnomasining o'rniga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Global ma'noda omborlar va ular ko'rsatadigan xizmatlar turlar (umumiy ko'rinishdagi saqlash, sovutilgan holatda saqlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash), mulkchilik (xususiy omborlar, jamoat omborlari, bojxona omborlari), foydalanish yo'nalishi (ishlab chiqarish, iste'mol tovarlar, oziq ovqat, ichimlik, chakana savdo, farmatseftika va sh.k.) hamda geografik segmentlarga bo'linadi"¹. Tovarlarni saqlanishini ta'minlashda esa tovar omborlarining tutgan o'rnini beqiyos bo'lib, ushbu yo'nalishda talab va taklif qonuniyatining kengayishi, yuk topshiruvchi va omonat saqlovchi o'rtasidagi munosabatlarni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish bilan birga, omonat saqlashning yangidan yangi turlari shakllanishi va rivojlanishiga olib kelmoqda. Xususan, biobanklar, self storage (shaxsiy saqlash), konsignatsiya kabi saqlash turlari va usullarining kengayishi, tovar omborida omonat saqlashda sun'iy intellekt va smart-texnologiyalardan foydalanishning huquqiy asoslarini yaratishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Masalan, "saqlash va saqlash xizmatlarining bozori 2023 yildagi 691,74 milliard dollardan 2028 yilga kelib 963,74 milliard dollargacha o'sishi, bunda prognoz davri (2023-2028 yillari)da o'sish sur'ati har yili o'rtacha 6,86 foizni tashkil qilishi kutilmoqda"². Bu esa omonat saqlashga bo'lgan talabning ortib borishi va ushbu munosabatni huquqiy tartibga solishni takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

Jahonda omonat saqlash munosabatlarning iqtisodiy sektorda tutgan o'rnini aniqlash hamda uning yangi turlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan "tayyor mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash jarayoniga zamonaviy innovatsion, resurs tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish masalalariga alohida e'tibor qaratish"³ lozimligi bo'yicha aniq choralarni ko'rish yuzasidan topshiriq berilishi bejiz emas albatta. Huquqiy maydon tashqarisida amalda bo'lib kelayotgan ayrim omonat saqlash munosabatlarida ashyoning tasodifiy nobud bo'lish xavfini o'tkazishga doir muammolar esa muayyan ilmiy metodologik yondashuvlarni o'rganish va tahlil etishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda hozirgi kunda, omonat saqlash faoliyati ko'plab sohalarda qo'llanilmoqda. "Yurtimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar sharoitida sohaga doir qonunchilikni xalqaro standart talablariga muvofiqlashtirish bo'yicha tegishli takliflar ishlab chiqish ustuvor vazifa sanaladi"⁴ Shu bois, omonat saqlashning yangi turlari: biomateriallarni omonat saqlash, konsignatsiya omborida omonat saqlash, pullik avtoturargohlarda avtotransport

¹ Анализ размера и доли рынка складских и складских услуг - тенденции роста и прогнозы (2023 - 2028 гг.) Source: <https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/warehousing-and-storage-services-market>

² O'sha joyda

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 07.03.2019-yildagi PQ-4231-son qarori. 9-band, to'rtinchi xatboshi. <https://lex.uz/docs/-4231026>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2022 y., 06/22/113/0330-son.

vositalarini omonat saqlash, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish tovar omborida omonat saqlovchilariga nisbatan majburiy talab sifatida belgilashga oid huquqiy qoidalarni belgilash alohida dolzarblik kasb etadi.

Fuqarolik kodeksi (1995), "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi (1996), "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi (1998) "Bank siri to'g'risida"gi (2003), "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi (2012) "O'zbekiston Respublikasining Markaziy Banki to'g'risida"gi (2019), "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi (2019) O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabrdagi PF-6313-son "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 24-avgustdagi PF-198-son "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2020-yil 9-apreldagi 210-son "Bojxona ombori, erkin ombor va boj olinmaydigan savdo do'koni faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlarini ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 25-maydagi 95-son qarori bilan tasdiqlangan "Don va don mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, ichki tashish, qayta ishlash va sotishning dastlabki hisobini yuritish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risida"gi, 2006-yil 18-sentabrdagi 199-son qarori bilan tasdiqlangan Paxta tozalash va yog'-moy korxonalarida paxta chigitini ishlab chiqarish, harakati, saqlash hamda qayta ishlashda dastlabki hisobga olishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomlari, Markaziy bank Boshqaruvining 2016-yil 25-iyundagi 18/2-sonli qarori bilan tasdiqlangan Banklar va ularning filiallari binolarida kassa tarmoqlarini tuzilishiga qo'yiladigan Texnik talablar va sohaga taalluqli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.⁵ Omonat saqlash sohasida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirishning muayyan jihatlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari dunyoning yetakchi ilmiy markaz va universitetlarida, jumladan, Harvard University (AQSh), American University of Sharjah (BAA), Shanghai University (Xitoy), Boston University School of Law (AQSh), La Sapienza (Italiya), Cologne (Germaniya) universitetlarida, Кемеровский государственный университет (RF), Xarkov davlat universiteti

⁵ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.globalsupport.harvard.edu/plan/legal-matters/contracts-agreements>, <https://www.aus.edu/sites/default/files>, <https://www.unidroit.org/civil-procedure/>, <https://www.bu.edu/law/record/articles/2023/models-for-modern-law/>, <https://www.editricesapienza.it/defaultfiles>, <https://www.dw.com/en/how-does-germanys-bottle-deposit-scheme-work/a-50923039>, <https://kemsu.ru/education/paid-education>, https://rgsu.net/netcat_files va boshqa manbalar asosida amalga oshirilgan

va Rossiya davlat ijtimoiy fanlar universitetida (RF) olib borilmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda omonat saqlash sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning muayyan jihatlarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida bir qator ilmiy natijalarga erishilgan. Xususan: omonat saqlash shartnomasini amaliyotda qo'llanilishi bilan bog'liq samaradorlikning oshishi yuzasidan shartnoma shartlariga izoh berishning asoslantirilishi oqibatida qator ilmiy natijalarga erishgan (Harvard University); fuqarolik-huquqiy munosabatlarda "Xalqaro tijorat shartnomalari printsiplari"ni qo'llash shartnomalarning xalqaro savdo (tijorat) amaliyotida keng qo'llanilishi samaradorligining oshirishiga xizmat qilishini asoslab bergan (La Sapienza University); fuqarolik-huquqiy munosabatlarda shartnomaning barcha shartlari uyg'unlashtirilishi kerakligi hamda tuzilayotgan shartnoma shartlarini to'g'ri shakllantirish lozimligini tadqiq qilishda muhim ilmiy natijalarga erishgan (Cologne University); fuqarolik-huquqiy munosabatlarda umumdavlat va mahalliy ehtiyojlar uchun yetkazib berilgan mahsulotni saqlashni huquqiy tartibga solinishi lozimligi asoslab berilgan (Российский государственный социальный университет).

Hozirda dunyodagi qator ilmiy markazlar va universitetlarda omonat saqlash munosabatlarning fuqarolik huquqida tutgan o'rni bo'yicha, xususan uning quyidagi yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirilmoqda: omonat saqlash shartnomasining namunaviy modelini rivojlantirish, uning jamiyat va umumdavlat ehtiyojlarini ta'minlashdagi ahamiyatini kengaytirish; omonat saqlash munosabatlarida tadbirkorlik faoliyati subyektlarining ishtiroki, omonat saqlash munosabatlarida xalqaro hujjatlarni takomillashtirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda omonat saqlash bilan bog'liq munosabatlarning ayrim tomonlari hamda ushbu shartnomaviy konstruktsiyasiga taalluqli bo'lgan masalalarning ayrimlari qator olimlarimiz tomonidan, ya'ni H.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, O.Oqyulov, S.B.Boyoqulov, D.M.Karaxodjayeva, N.F.Imomov, J.I.Babayev, B.R.Topildiyev va boshqalarning asarlarida uchraydi. Xizmat ko'rsatishga oid munosabatlar esa N.S.Narmatov, T.A.Mo'minov, L.I.Achilovlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH davlatlarida omonat saqlashni dissertatsiya tadqiqoti darajasida o'rganishga O'zbekistonga qaraganda bir qadar keng e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin. Jumladan, RFlik: M.I.Брагинский, В.В.Витрянский, К.С.Боуш, И.В.Кравченко, Ю.С.Соловьева, Н.А.Новокшенова, Украиналик: О.В.Батожська, Т.В.Боднар, Е.М.Грамацький, А.М.Демчук, А.Г.Донець, Қозоғистонлик: Д.Абжанов, Ф.Г.Ибрагимова tomonidan omonat saqlash munosabatlarini fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalalari u yoki bu darajada tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan: L.Annaratone, G.De Palma, G.Bonizzi, A.Sapino, G.Botti, S.A.Health, D.H.Ray, J.B.Cohen, R.M.Good, V.A.Dover, G.Reiner, K.Lewis, W.Patrick, Steven Shavell, D.Trebilcock, S.M.Robbins, V.A.Dover, Krien-Hay, E.Berrino, C.Mannelli, P.Arcella, S.Di Martino, A.Steffan, Mg.Daidone, V.Canzonieri, B.Parodi, A.V.Paradiso, M.Barberis, C.Marchiò kabi olimlarning asarlarida omonat saqlashning ayrim masalalari o'rganilgan.

Biroq o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, o'zbek sivilistikasida omonat saqlash shartnomasiga oid umumiy jihatlar FK sharhlari hamda o'quv adabiyotlari doirasida yoritilgan, xolos. O'zbekistonning milliy sivilistika fanida omonat saqlash shartnomasining mohiyati, uning iqtisodiy-huquqiy vazifasi hamda maqsadlari, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda o'rni, omonat saqlashning yangi turlari, omonat saqlashga nisbatan raqamli texnologiyalarni qo'llashning huquqiy asoslari hali tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Omonat saqlash munosabatlarining fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi" (2020-2023-y.y.) mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi omonat saqlash tushunchasi va o'ziga xos xususiyatlari, omonat saqlash shartnomasini tuzish va uni amalda qo'llash hamda omonat saqlashni huquqiy tartibga solish muammolari yuzasidan fuqarolik huquqi doktrinasini boyitishga oid xulosalar hamda qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

omonat saqlash tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyatini ochib berish;

omonat saqlash shartnomasining majburiyat tizimida tutgan o'rnini aniqlash;

omonat saqlash munosabatlarining majburiy subyekti – tovar omborining huquqiy maqomini belgilash;

omonat saqlash shartnomasining mazmunini ilmiy tahlil etish;

omonat saqlash majburiyatini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni yoritish;

omonat saqlash hujjatlarini tuzish, rasmiylashtirish tartibi va muomalada bo'lishini tadqiq etish;

omonat saqlashni amalda qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

omonat saqlash munosabatlariga nisbatan raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalarini tahlil qilish;

shaxsiy biobankda inson biologik materialini kriokonservatsiya qilish va omonat saqlash shartnomasining mazmunini ochib berish va uni qo'llash istiqbollari yoritish;

pullik avtoturargohlarda avtotransport vositalarini omonat saqlash bilan bog'liq munosabatlarni tahlil qilish, ilmiy yechim berish;

korxonalarining belgilangan joyida jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan ashyolarni omonat saqlash bilan bog'liq munosabatlarni o'rganib chiqish, takliflar ishlab chiqish;

omonat saqlashning yangi turlari (konsignatsiya shartnomalari, zaxira omborlari, logistika omborlar faoliyati)ni o'rganib chiqish, milliy qonunchiligimizni boyitish yuzasidan tavsiyalar berish;

ashyoning saqlanishi jarayonida uning tabiiy o'zgarishi tufayli normal yo'qotish yuzaga kelgan hollarda fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalarini tahlil

qilish;

self storage (shaxsiy saqlash) xizmatini joriy qilish va fuqarolik-huquqiy asoslarini yaratishga oid tavsiyalarni shakllantirish;

omonat saqlash shartnomasini fuqarolik-huquqiy tartibga solishga oid qonunchilik takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalardan ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida zamonaviy bozor munosabatlari sharoitida omonat saqlash, tadbirkorlik muomalasida omonat saqlash shartnomasini qo'llash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar olingan.

Tadqiqotning predmetini omonat saqlashning nazariy va amaliy muammolari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy va tizimli yondashuv, analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy va tahlil qilish, normativ-huquqiy va amaliy tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va yakuniy xulosani shakllantirish, mantiqiylik, huquqni qo'llash va sud amaliyotini tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

omonat saqlash munosabatlarida organik va organik-mineral o'g'itlarni saqlash quruq maxsus yopiq xonalarda (omborlarda), germetik sig'imlarda (siloslar, saqlash joylarida) amalga oshirish, shuningdek, saqlash vaqtida ularning saqlanishi va xodimlarning salomatligiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazish xavfi bo'lmasligi lozimligi asoslantirilgan;

banklar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, shuningdek, banklarning affinlangan qimmatbaho metallar sotib olishi va sotishi, shu jumladan metallarni mas'ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo'lmagan) hisobvaraqlarini yuritishi mumkinligi asoslab berilgan;

erkin ombor tushunchasini bayon etish yuzasidan, ya'ni "erkin ombor – maxsus jihozlangan va belgilangan joy bo'lib, binolarning hududini va (yoki) ochiq maydonchalarni o'z ichiga olishi hamda tovarlarni erkin ombor rejimida bojxona nazorati ostida saqlashga mo'ljallangan joy" tushunchasiga mualliflik ta'rifi berilib, qonunchilik hujjatlariga kiritish asoslantirilgan;

bojxona erkin omborida saqlash uchun qabul qilingan ayrim tovarlarni, o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, boshqa tovarlarga zarar yetkazishi mumkin bo'lganligi yoki alohida sharoitlarda saqlanishni talab etishini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan majburiy talablarga rioya qilingan holda erkin omborning bir qismi hisoblangan, bunday tovarlarni saqlash uchun maxsus moslashtirilgan omborlarda yoxud alohida binolarda saqlanishi kerakligi asoslab chiqilgan;

banklar o'zining moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishi jarayonida hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berishi mumkinligi asoslab berilgan;

tovar omborlarida saqlanayotgan organik va organik-mineral o'g'itlarni saqlash joylarida ko'zga ko'rinadigan joylarda ularni saqlashning o'ziga xos xususiyatlari, gigiyena qoidalari, xavfsizlik choralari, shu jumladan, favqulodda vaziyatlarda amalga oshiriladigan tadbirlar rejasi haqida ma'lumotlarni joylashtirish lozimligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mamlakatimizda omonat saqlash munosabatlarini takomillashtirish va rivojlantirish, qonunchilik hujjatlarida mavjud bo'lgan bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida Fuqarolik kodeksi 82, 875, 885, 890, 898, 903 va 909 - moddalariga tegishli o'zgartirish hamda qo'shimchalar kiritish asoslantirilib, 896 va 901 - moddalarning yangi tahriri ishlab chiqilgan hamda mazkur kodeksga yangi normalar sifatida 96¹, 896¹, 900¹, 900², 900³, 907¹, 913¹, 913², 913³, 913⁴, 913⁵, 913⁶, 913⁷, 913⁸ va 913⁹ - moddalarni kiritish, shuningdek, 894 va 895 - moddalarini bugungi kunda o'z ahamiyatini yo'qotganligi sababli chiqarib tashlash takliflari, Prezidentimizning "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 30.04.2022-yildagi PQ-232-son qarori 13-bandiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda VMning 07.01.2011-yildagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan "Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati" 90-pozitsiyasi sifatida yangi faoliyat turini kiritish asoslab berilgan;

omonat saqlash, xususan, ixtisoslashgan tovar omborlarida (bojxona omborlari ham shunga kiradi) omonat saqlashda raqamli va aqlli texnologiyalarni joriy etishning huquqiy asoslarini joriy etish asoslantirib, omborda saqlanayotgan tovarlarning holati, ularning xavflilik darajasini aniqlash, tovarlarni saralash, joylashtirish, qabul qilish va yuborishda smart-texnologiyalarni joriy etish orqali aqlli-logistika, aqlli-ombor tizimini yaratishga oid qonunchilik hujjatini ishlab chiqish lozimligi asoslab berilgan;

bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlarda tovarlarni omonat saqlash va yetkazib berish tovar omborida omonat saqlash va logistikaning aralash ko'rinishida amalga oshirilayotganligi, bu holat ayni paytda fuqarolik huquqidagi yangi shartnoma konstruksiyalarini yaratish zaruratini taqozo etayotganligi, shundan kelib chiqib, logistika omborlarida omonat saqlash shartnomasini yoki konsignatsiya shartnomasini qo'llashga oid huquqiy bazani shakllantirish zarurligi borasida takliflar asoslantirilgan;

tovar omborida omonat saqlash munosabatlarini huquqiy tartibga solishda qimmatli qog'ozlar vositasidan ham foydalanilishi qonunchilikda belgilangan, lekin amalda bu qimmatli qog'ozlarning qo'llanilishi va ularning muomalasi kuzatilmasligi, ayni paytda tovarlar harakatlanishi tezligining ortishi va bu jarayoning osonlashuvi tovar omborida omonat saqlash jarayonlarida qo'llaniladigan qimmatli qog'ozlarga nisbatan talablarni qayta ko'rib chiqish lozim bo'lganligi, chunki, tovar omborida omonat saqlashda qo'llaniladigan "ikki qismli ombor guvohnomasi"ning huquqiy tabiati noaniq bo'lganligi sababli mazkur qimmatli qog'ozdan foydalanish ham kuzatilmasligi oqibatida, ushbu munosabatni huquqiy asosini mustahkamlashga doir qator ilmiy yechimlar ishlab chiqilgan;

keyingi yillarda biobanklarda biomateriallarni saqlashning istiqbollari rivojlanib borayotganligi, bu o'z navbatida, inson salomatligi va kasalliklarning davosini topishda juda istiqbolli yo'nalish bo'lib sanalishi, biroq hanuzgacha O'zbekistonda saqlashning mazkur turi yo'lga qo'yilmaganligi va uning huquqiy asoslari yaratilmaganligi sababli, mamlakatimizda ham biobanklar faoliyatini yo'lga qo'yish va tegishli huquqiy asoslarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan;

tovarlar aylanmasini maqbul, samarali va egiluvchan bo'lishini ta'minlash maqsadida konsignatsiya omborida omonat saqlash shartnomasiga oid qoidalarni omonat saqlashning alohida turi sifatida FKda ifodalash maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan;

turli davlat tashkilotlari, ayniqsa huquqni muhofaza qilish organlarining binolariga tashrif buyuruvchilardan mobil aloqa vositalari: telefon, fleshka va boshqa har qanday yozib olish, saqlash va uzatish qurilmalarini tegishli quticha (belgilangan joy)ga qo'yib ichkariga kirishi talabi mavjud ekanligi, bu vaziyatda mol-mulkni saqlashga topshirgan shaxs va uni saqlovchi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga nisbatan qaysi qoidalar qo'llanilishi, ular o'rtasidagi huquq va majburiyatlarga nisbatan ommaviy-huquqiy yoki xususiy-huquqiy normalar tatbiq etilishi kabi masalalar ochiq qolib ketayotganligi, o'zganing mulkini boshqa shaxs tomonidan saqlab turish omonat saqlash shartnomasi konstruksiyasiga bo'ysundirilgan ekan, bu holatga nisbatan ham shunday tartib amal qilishi zarurligi asoslantirilgan;

omonat saqlash munosabatlari tizimida avtoturargohlarda omonat saqlash va bu boradagi infratuzilmalar O'zbekiston qonunchiligida yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri bo'lib sanalishi, hozirgi kunda avtoturargohlarning huquqiy maqomi va ularda saqlash bilan bog'liq qoidalar belgilanmaganligi, mazkur muammolar yechimi esa avtoturargohlarga oid qoidalarni qonunchilikka singdirish kabi takliflar asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalarining ishonchliligi tadqiqotda amalga oshirilgan usullar, rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalanilganligi, olimlarning nazariy yondashuvlari, xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlarining qiyosiy o'rganilganligi, statistik materiallarning tahlil qilinganligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, uning natijasida erishilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, fuqarolik, tadbirkorlik qonun hujjatlarining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirish hamda fuqarolik huquqi, tadbirkorlik huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'lib, nazariy jihatlariga tayanish kelgusida omonat saqlashning turlarini kengaytirish va takomillashtirish, sohada tadbirkorlik faoliyati subyektlarining ishtiroki hamda fuqarolik-huquqiy shartnomalarning qo'llanilishi bilan bog'liq mavzularda yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish imkonini beradi.

Dissertatsiya ishi natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ularning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida: *birinchidan*, majburiyatlarni bajarish va huquqni qo'llash, shuningdek, javobgarlikni belgilashga doir muammolarga ilmiy yechim berishga erishladi; *ikkinchidan*, omonat saqlash sohasini tartibga soluvchi xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilik takomillashtiriladi; *uchinchidan*, huquqni qo'llash amaliyoti rivojlantiriladi; *to'rtinchidan*, "Fuqarolik huquqi" hamda "Tadbirkorlik huquqi" fanlari bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda, o'quv va metodik qo'llanmalar tayyorlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi, *beshinchidan*, omonat saqlash bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha sudlar amaliyotida foydalanish

mumkin bo‘lgan manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Omonat saqlash munosabatlarining fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi” dissertatsiya ishi natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

omonat saqlash munosabatlarida organik va organik-mineral o‘g‘itlarni saqlash quruq maxsus yopiq xonalarda (omborlarda), germetik sig‘imlarda (siloslar, saqlash joylarida) amalga oshirish, shuningdek, saqlash vaqtida ularning saqlanishi va xodimlarning salomatligiga hamda atrof-muhitga zarar yetkazish xavfi bo‘lmasligi lozimligi bilan bog‘liq takliflar VMning 2020-yil 18-noyabrdagi 729-son qarori bilan tasdiqlangan “Organik va organik-mineral o‘g‘itlar xavfsizligi to‘g‘risida umumiy texnik reglament”ning 40, 41, 42 va 46-bandlarini ishlab chiqishda o‘z aksini topgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta‘minlash boshqarmasining 2021-yil 21-yanvardagi 12/21-07-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlashda ularning tabiiy kamayishi va normal yo‘qotishi normalarini belgilangan me‘yorlarda ushlab turishlikning huquqiy asoslarini yaratishga hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlashda ularning sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlashga xizmat qilgan;

banklar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, shuningdek, banklarning affinlangan qimmatbaho metallar sotib olishi va sotishi, shu jumladan metallarni mas‘ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo‘lmagan) hisobvaraqlarini yuritishi mumkinligi to‘g‘risidagi takliflar O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi 2019-yil 5-noyabrdagi O‘RQ–580-son Qonunning 5-moddasi birinchi qismi o‘n birinchi va o‘n ikkinchi xatboshilarini ishlab chiqilishida foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Budget va iqtisodiy islohotlar qo‘mitasining 2022-yil 16-martdagi 04/1-1/342-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar banklarning banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradigan yo‘nalishlarining qonunchilik hujjatlaridagi normalarda qo‘llanilishini ta‘minlashga xizmat qilgan;

qonunchilik hujjatlariga erkin ombor tushunchasini bayon etish, ya‘ni “erkin ombor – maxsus jihozlangan va belgilangan joy bo‘lib, binolarning hududini va (yoki) ochiq maydonchalarni o‘z ichiga olishi hamda tovarlarni erkin ombor rejimida bojxona nazorati ostida saqlashga mo‘ljallangan joy” bo‘yicha bildirilgan takliflar VMning 2020-yil 9-apreldagi 210-son qarori bilan tasdiqlangan “Erkin ombor faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti” 2-band, ikkinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2020-yil 5-iyundagi ma‘lumotnomasi). Mazkur takliflar bugungi kunda omonat saqlash shartnomasi subyekti bo‘lgan erkin omborning qonunchilik hujjatlaridagi tushunchasini aniqlashtirishga xizmat qilgan;

bojxona erkin omborida saqlash uchun qabul qilingan ayrim tovarlarni, o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, boshqa tovarlarga zarar yetkazishi mumkin

bo'lganligi yoki alohida sharoitlarda saqlanishni talab etishini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan majburiy talablarga rioya qilingan holda erkin omborning bir qismi hisoblangan, bunday tovarlarni saqlash uchun maxsus moslashtirilgan omborlarda yoxud alohida binolarda saqlanishi kerakligi to'g'risida bildirilgan takliflar VMning 2018-yil 18-dekabrda 1028-son qarori bilan tasdiqlangan "Erkin ombor faoliyatini litsenziyalash to'g'risida nizom"ning 14-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2019-yil 24-iyundagi dalolatnomasi). Mazkur takliflar bilan ashyoning o'ziga xos ayrim xossalari haqida omonat saqlovchi yuk topshiruvchidan ma'lumot olganida, ashyoning xususiyatlarini inobatga olib, uni boshqa tovarlarga zarar yetkazmasligi choralari ko'rishi yoki alohida sharoitlarda saqlash lozimligining huquqiy jihatdan mustahkamlanishida xizmat qilgan;

banklar o'zining moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishi jarayonida hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berishi mumkinligi to'g'risidagi takliflar O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi 2019-yil 5-noyabrda O'RQ-580-son Qonunning 5-moddasi birinchi qismi o'n beshinchi xatboshisini ishlab chiqilishida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Budjet va iqtisodiy islohotlar qo'mitasining 2022-yil 16-martda 04/1-11/342-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar banklarning qimmatliklarni saqlashda yuk topshiruvchi (mijoz)ning qimmatliklarini muhofaza qiladigan yakka tartibdagi bank seyfini taqdim etgan holda, saqlashni amalga oshirish faoliyatini huquqiy tomondan mustahkamlanishiga xizmat qilgan;

tovar omborlarida saqlanayotgan organik va organik-mineral o'g'itlarni saqlash joylarida ko'zga ko'rinadigan joylarda ularni saqlashning o'ziga xos xususiyatlari, gigiyena qoidalari, xavfsizlik choralari, shu jumladan, favqulodda vaziyatlarda amalga oshiriladigan tadbirlar rejasi haqida ma'lumotlarni joylashtirish lozimligi bo'yicha takliflar VMning 2020-yil 18-noyabrda 729-son qarori bilan tasdiqlangan "Organik va organik-mineral o'g'itlar xavfsizligi to'g'risida umumiy texnik reglament"ning 43, 44 va 45-bandlarini ishlab chiqishda o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Yuridik ta'minlash boshqarmasining 2021-yil 21-yanvarda 12/21-07-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar omonatga topshiriladigan ayrim ashyolarni ularning o'ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, saqlash bilan bog'liq munosabatlarda xavfsizlik choralari amal qilishlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot ishining natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamalardan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, xususan 1 ta monografiya, 19 ta ilmiy maqola (ulardan 5 tasi xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 239 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslantirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti yoritilgan, shuningdek, dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi, respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslantirilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan aloqadorligi, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Omonat saqlash shartnomasining tushunchasi va yuridik tabiati”** deb nomlangan birinchi bobida omonat saqlash shartnomasining tushunchasi va ahamiyati, omonat saqlash shartnomasining xizmat ko'rsatish shartnomalari tizimidagi o'rni, omonat saqlash shartnomasining predmetini belgilash va shakliga oid muammolar tahlili amalga oshirilgan.

Hozirgi kunda omonat saqlash bilan bog'liq munosabatlarning o'rni va ahamiyat tubdan o'zgardi. Ma'lumki, mulkdorlar har doim ham o'zlariga tegishli mol-mulkni, ko'char ashyolarni o'zlari bilan olib yurish yoki o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib uni saqlab turish imkoniyatiga ega bo'lavermaydilar.

Omonat saqlash shartnomasi majburiyatlar tizimidagi quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

- 1) mulkning titulli egaligi yuzaga keladigan majburiyatdir;
- 2) omonat saqlash shartnomasi xizmat ko'rsatish munosabatlari tarkibiga kiradi;
- 3) ushbu shartnoma o'zaro ishonchga asoslangan shartnoma hisoblanadi;
- 4) huquqiy belgilari ko'ra: bir tomonlama yoki ikki tomonlama; tekin va haq evaziga; real va konsensual; professional va oddiy turlarga ega.

Ushbu shartnoma ikki tomonlama majburiyat yuklovchi shartnomalar turkumiga kiradi, ya'ni haq evaziga yoki tekinga tuziladigan har ikki holatda ham majburiyatlar o'zaro bo'lib, har ikki tomonda huquq va majburiyatlar mavjud bo'ladi. Masalan, omonat saqlash shartnomasiga ko'ra, omonat saqlovchi mol-mulkning saqlanishini ta'minlashi va uni boshqa tomonga qaytarishi shart, bu tomon esa, o'z navbatida, belgilangan muddat tugagandan so'ng, topshirilgan mol-mulkni qaytarib olishga, omonat saqlovchiga uni saqlash xarajatlari va ushbu mol-mulkning omonat saqlovchi bilmagan va bilishi mumkin ham bo'lmagan xossalaridan kelib chiqqan zararlarni qoplashga majburdir.

Omonat saqlash shartnomasi, agar shartnomada:

omonat saqlaganlik uchun yuk topshiruvchining zimmasiga muqobil ijro yuklanmagan bo'lsa, omonat saqlash shartnomasining mazmun-mohiyatidan u tuzilishi bilan ijro etiladigan hamda maishiy tusda bo'lsa, bunday omonat saqlash shartnomasini real, tekinga tuziladigan va bir tomonlama shartnoma, deb hisoblanishi;

tarafklar yuk topshiruvchining muqobil ijrosi bo'yicha shartga kelishishgan yoxud shartnomada ijro muddati u tuzilgan vaqtdan keyinga belgilangan yoxud bu shartnomada tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi omonat saqlovchi bilan tuzilgan bo'lsa, bunday omonat saqlash shartnomasi konsensual, haq evaziga tuziladigan va ikki tomonlama shartnoma bo'lib hisoblanishi tahlil qilindi.

Amaliyot ko'rsatishicha, iqtisodiyotning shiddat bilan rivojlanayotgan va istiqbolli sohalaridan biri – bu xizmat ko'rsatish sohasi hisoblanadiki, xizmatlarning tez rivojlanishi XXI asrda boshidagi iqtisodiy holatda o'zining alohida jihatlarini bilan ajralib turadi. Omonat saqlovchi yuk topshirgan mulkdorning mol-mulkini muayyan muddat saqlab berish orqali uning uchun o'ziga xos xizmatni ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, omonat saqlovchi mol-mulkning nobud bo'lishi, shikastlanmasligi va butligini ta'minlashga qaratilgan harakatlarni amalga oshiradi. Bu harakat esa yuk topshiruvchi uchun xizmat ko'rsatish hisoblanadi. Chunki, xizmat – bu eng avvalo, muayyan moddiy yoki nomoddiy ehtiyojni qanoatlantirishga qaratilgan faoliyati hisoblanadi.

Dissertatsiyada omonat saqlashning fidutsiar bitim sifatida mohiyatini tahlil qilinishi barobarida huquqshunos olimlar (H. Rahmonqulov, E.N. Usmanova)ning fikrlari o'rganilib, xizmat ko'rsatishning ushbu turida “ishonch” kategoriyasining o'rni yuqori ekanligi asoslantiriladi. Ashyoni “saqlash” o'ziga xos faktik harakatlarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi va mazkur harakatni amalga oshirishga haqli shaxs – omonat saqlovchida mulkka nisbatan egalik qilish huquqi mavjud bo'lmaydi.

Fuqarolik huquqi doktrinasida xizmatlar mohiyatini tushunish bo'yicha uch yondashuv shakllangan. Birinchi guruh vakillari xizmat ko'rsatishning pudrat shartnomalarining bir turi ekanligini tasdiqlashadi. Boshqa olimlar xizmat ko'rsatish alohida shartnoma sifatida mavjud bo'lishi haqidagi fikrni qo'llab-quvvatlaydi. Uchinchi yondashuvga ko'ra esa, xizmat tushunchasi ish tushunchasiga qaraganda kengroqdir. Mos ravishda, fuqarolik huquqi fanida xizmat ko'rsatish mohiyati, uning o'ziga xos jihatlari, pudrat shartnomasidan farqlanishi kabi masalalar bo'yicha yakdil yondashuv shakllanmagan, bu esa ushbu masala bo'yicha yangi tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Fikrimizcha, eng to'g'ri yo'l xizmatlar mohiyatini uning belgilari orqali tadqiq etishdir. Xizmatlar fuqarolik huquqlari obyektini hamda xizmat ko'rsatish shartnomasi obyektini sifati murakkab, bir ma'noli bo'lmagan hodisadir.

Omonat saqlash munosabatlari o'zaro ishonchga asoslangan hamda titulli egalikni belgilash nuqtai-nazaridan xizmat ko'rsatishning boshqa turlaridan farq qiladi. Shu sababli ularga nisbatan qoidalarni belgilashda omonat saqlovchiga nisbatan mulkdor bo'lmagan ega maqomi xos bo'lib, uning bu maqomi saqlashga topshirilgan mol-mulkka nisbatan muayyan vakolatlarini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot ishida FKning 82-moddasini omonat saqlash shartnomasining konstruksiyasiga nisbatan qo'llanilishini aniqlashtirish maqsadida ushbu moddani takomillashtirish taklif etiladi.

Shu bilan birga izlanishlar davomida, omonat saqlash munosabatlarini shakllanishi va rivojlanishi davri bo'yicha qator xorijiy davlatlar (Ispaniya, Frantsiya, Germaniya, RF, Ukraina)ning normativ huquqiy hujjatlari, ayrim olimlar

(H. Rahmonqulov, I.B. Zokirov, V.Yo. Ergashev, T.A. Mo‘minov, E.N. Usmanova, V. Topildiyev, K.A. Mityukov, M.I. Braginский, V.B. Kалемина, H.M. Boyko, A.D. Kорецкий, H.A. Новокшопова)ning asarlarida omonat saqlash shartnomalarining boshqa shartnoma turlaridan farqli jihatlari tahlil qilingan va muallif tomonidan omonat saqlash shartnomasining tushunchasiga va predmetini belgilashga doir takliflar ishlab chiqilgan.

“Omonat saqlash shartnomasining mazmunining ilmiy-nazariy tahlili” – deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida omonat saqlash shartnomasi taraflarning huquq va majburiyatlarining ifodalanish muammolari, omonat saqlash shartnomasini buzganlik uchun javobgarlikni qo‘llash masalalari, omonat saqlash munosabatlariga nisbatan raqamli texnologiyalarni qo‘llash istiqbollari kabi masalalar tadqiq qilingan.

Amaldagi fuqarolik qonunchiligiga ko‘ra omonat saqlovchi “odatdagi” saqlovchi va professional omonat saqlovchiga bo‘linadi. Bunda professional bo‘lmagan omonat saqlovchi ham professional omonat saqlovchi ham ashyoni saqlash borasida quyidagilar uchun mas‘ul va javobgar hisoblanadi: ashyoning tasodifan nobud bo‘lib qolish xavfi uchun; ashyoning shikastlanishi uchun; ashyoga nisbatan turli tajovuzlar uchun; ashyoning but saqlanishi uchun. Professional omonat saqlovchi yuk topshiruvchining ashyosini saqlashga qabul qilish majburiyati borligini nazarda tutadi. Bundan farqli ravishda professional bo‘lmagan omonat saqlovchilarda bunday majburiyat mavjud bo‘lmaydi va professional bo‘lmagan omonat saqlovchi ashyoni saqlashga qabul qilishni rad etishga haqli hisoblanadi.

Tadqiqot ishida omonat saqlash munosabatlarida taraflarning javobgarligi masalalari tahlil qilinib, qoidaga ko‘ra ashyoni but va shikast yetkazmagan holda to‘liq saqlash majburiyatini buzganlik uchun yuk topshiruvchining javobgarligi ashyoning shikastlanishi, buzilishi, yo‘qolishi va kamayishiga mutanosib bo‘lishi lozimligi asoslantiriladi va bunda fuqarolik-huquqiy javobgarlikning mohiyatiga oid bir qator huquqshunos olimlar (H.R. Rahmonqulov, J.I. Babayev, N. Egamberdieyva, M.I. Braginский, V.V. Vitryanskiy)ning fikrlari tahlil qilinadi.

Yuk topshiruvchi tovar omboriga saqlash uchun topshirayotgan tovar to‘g‘risida barcha ma‘lumotlarni berishi lozim. Bunday ma‘lumotlarni bermaslik yoki yashirish FKning 888-moddasi nazarda tutilgan oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bunda ashyoning xususiyatlari haqida yuk topshiruvchiga ma‘lumot bermagan yoki bunday ma‘lumotlarni yashirgan shaxs yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo‘ladi. Aytish lozimki, keyingi paytlarda tadbirkorlikka keng imkoniyatlar berilishi oqibatida tovar omborlari, ayniqsa bojxona omborlari faoliyati va saqlash doirasi kengayishiga olib keldi. Ayniqsa, bojxonadan o‘tgan turli xildagi tovarlarni bojxona rasmiyatchiliklarini amalga oshirilguniga qadar saqlashda yuzaga keladigan xavflarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ko‘rish bilan bog‘liq bo‘lgan talablar ortishi kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan FKning 890-moddasiga quyidagi mazmundagi to‘rtinchi qismni qo‘shish lozim bo‘ladi: “professional omonat saqlovchi ashyoning yo‘qolishi (etishmasligi), shikastlanishi natijasida yetkazilgan zararni to‘liq hajmda qoplaydi”.

Fuqarolik kodeksi bugungi kunda amaliyotda keng qo‘llanilayotgan omonat saqlashning ayrim turlarini nazarda tutmaydi. Masalan, Fuqarolik kodeksida

transport vositalarini saqlash, muayyan ashyolarni saqlash kabi shartnomalar mavjud emas. Bundan farqli ravishda Ukraina Grajdanklik kodeksining 977-978-moddalarida omonat saqlashning mazkur turlari o'z ifodasini topgan. Yaponiyada esa tashrif buyuruvchilarga maishiy qulayliklar yaratish maqsadida bepul avtoturargoh xizmatining tashkil etilishi bo'yicha qonuniy asoslar mustahkamlanganligini e'tirof etish mumkin. Fikrimizcha, bu holatda Ukraina yoki Yaponiya kabi mamlakatlarning tajribasidan foydalanish o'rinli bo'lar edi. Bu bilan fuqarolik huquqiy normalarning tekin xizmat ko'rsatish segmentini qonuniy kengaytirilishi hamda yashirin iqtisodiyotdan qonuniy (legal) iqtisodiyotga o'tilishning huquqiy asoslari yaratilgan bo'lar edi.

Tadqiqotda keltirilishicha, raqamli asr saqlash va asrash usulini o'zgartirdi. Aksariyat korxonalar omborlardan foydalangan holda ishlaganligi sababli, texnik yutuqlar omborxonaga va saqlashni tashkil yetish usullarini tubdan o'zgartirdi. Ishlarni tezlashtirish va sifatini oshirish maqsadida omborlarga turli texnologiyalar va dasturiy ta'minot qo'shila boshlandi, bu jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: bulutli dasturiy ta'minot; kengaytirilgan va virtual reallik; sun'iy aql; mashina tomonidan o'rgatish; internet ashyolar.

Muallifning yozishicha, robotlar va dronlar ishlab chiqarish va logistika sohasida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Bugungi kunda bu nafaqat konveyer ishi, balki tovarlarni ko'chirish va murakkab ma'lumotlarni hisoblash uchun ko'p mehnat talab qiladigan operatsiyalarda qo'llaniladi. Robotlardan foydalanish tufayli omborlarda tovarlar aylanmasi sezilarli darajada oshdi. Omborda ishlaydigan xodimlar soni ham optimallashtirildi, bu esa moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi. Ombor logistikasida qo'llaniladigan innovatsiyalarni 2 toifaga bo'lish mumkin: "shaxsga yo'naltirilgan tovarlar" buyurtmalarini yig'ish tizimidagi innovatsiyalar; "tovarlarga yo'naltirilgan shaxs" buyurtmalarini tanlash tizimidagi innovatsiyalar. 1-toifaga dronlar, radio kema (radioshat)lar va robokarlardan foydalanish kabi texnologiyalar kiradi.

Dissertatsiyada raqamli omborda omonat saqlash texnologiyalari sifatida "DHL kurer xizmati", "RFID, SMART-aqlli ko'zoynaklar va Pick-by-Voice (ovoz bilan tanlash) texnologiyasi", "RF ID Radio Frequency Identification yoki radiochastota identifikatsiyasi", "RFID tizimi RFID - yorlig'i, RFID - hisoblagichlari, RFID antennasi", "PUT TO LIGHT Put to Light texnologiyasi" tahlil qilinadi.

Tadqiqot ishining "**Omonat saqlash shartnomasining alohida turlarining huquqiy tavsifi**" nomli uchinchi bobida tekinga tuziladigan omonat saqlash shartnomalarining umumiy tavsifi va tasniflanishi, haq evaziga tuziladigan omonat saqlash shartnomalarining turlari va ular amal qilishining o'ziga xos xususiyatlari, shaxsiy biobankda inson biologik materialini kriokonservatsiya qilish va omonat saqlash shartnomasi muammolari tadqiq qilingan.

Iqtisodiy nuqtai-nazardan omonat saqlash xizmati ham muayyan moddiy boylikni yoki qiymatni yuzaga keltirmaydi, balki faqat mavjud moddiy ne'matlarni but va to'liq holda saqlanishi ta'minlaydi. Shu sababli omonat saqlash xizmatlari o'zining mohiyati nuqtai-nazarda moddiy ne'matlarning nobud bo'lishi, shikastlanishi va yo'q bo'lib ketishini oldini olishga qaratilgan faoliyat sifatida ko'riladi.

Tadqiqot ishida keltirilishicha, tekinga omonat saqlash shartnomalari uchun xos bo'lgan xususiyatlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: tekinga omonat saqlash shartnomalari odatda tuzilishi bilan ijro etiladi yoki ma'muriy tartibga ko'ra tekinga tuzishga yo'l qo'yilishi mumkin (sekvestr); omonat saqlash shartnomalarining mazkur turida muqobil ijro mavjud bo'lmaydi; odatda tekinga omonat saqlash qo'shimcha xizmat, mijozga qulaylik tug'dirish yoki muayyan tashkilotning nufuzini oshirish uchun amalga oshiriladi; tekinga omonat saqlash xizmatlari har qanday shaxsga emas, balki tashkilotga tashrif buyuruvchilarga ko'rsatiladi; tekinga omonat saqlash xizmatini ko'rsatish odatda maishiy tus kasb etadi va yuk topshiruvchining shaxsiy buyumlarini qisqa muddatga saqlab turishni taqozo etadi.

Tadqiqot ishida tekinga omonat saqlash va ssuda shartnomasi o'rtasidagi o'xshash va farqlar tahlil qiladi. Bunda asosiy farq sifatida omonat saqlashda mol-mulkdan foydalanish elementi mavjud emasligi ko'rsatiladi. Amaldagi tahlillar asosida FKning 885-moddasiga "yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida yoki shartnomada ashyolarni tekinga saqlash nazarda tutilishi mumkinligi" haqidagi qoidani kiritish taklifi beriladi.

Omonat saqlash shartnomasining turlariga xos yana bir xususiyat bu shartnomalar subyektlarining professional omonat saqlovchilik xususiyatga egaligi va barchasi uchun ham shartnomaviy majburiyatlarning qat'iy belgilanganligidir. Boshqacha aytganda, omonat saqlash shartnomasi subyektlari hisoblangan lombard, bank, transport tashkilotlari, kiyimxonalar mavjud bo'lgan tashkilotlar, mehmonxonalar, tovar ombori saqlash faoliyati bilan professional shug'ullanadi va bunda ularning faoliyati tegishli nizomlar hamda yo'riqnomalar asosida amalga oshiriladi. Mazkur subyektlardan ayrimlari faoliyati esa tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Masalan, lombard, bank va tovar omborining omonat saqlash borasidagi faoliyatini tadbirkorlik faoliyati sifatida e'tirof etish mumkin.

Yakka tartibdagi bank seyfini taqdim etish haqidagi shartnoma FK darajasida maxsus huquqiy tartibga solinishi zarur deb hisoblaymiz, chunki mol-mulk saqlanishini ta'minlash uchun bank sandig'idan foydalanish bilan bog'liq holda vujudga keladigan munosabatlar FKdagi nomlangan va nomlanmagan shartnomalar bilan lozim darajada tartibga solinmagan. Yuqoridagilarni umumlashtirib aytish mumkin-ki, qimmatliklarni bankda saqlash va yakka tartibdagi bank seyfini taqdim etish haqidagi shartnomalarning noan'anaviy bank xizmatlari hamda omonat saqlash shartnomasining maxsus turi sifatida yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'ziga xos jihatlariga qaramasdan, ularning maqsadi umumiy – mijoz mol-mulki saqlanishini ta'minlash hisoblanadi.

Ayrim davlatlar qonunchiligida "mehmonxona va restoranlarda omonat saqlash" FKda omonat saqlashning alohida turi sifatida alohida paragrafda ifodalangan. Masalan, Ozarbayjon FKning "Omonat saqlash"ga bag'ishlangan 45-bobining 3-paragrafi "Mehmonxona va restoranlarda omonat saqlash" shartnomasi deb nomlanib, 6 ta moddadan tashkil topgan. Bunda omonat saqlashga oid belgilangan umumiy qoidalardan farqli ravishda mehmonxona va restoranlarda omonat saqlashning o'ziga xos jihatlarini ifodalaydigan mehmonxona yoki restoran egasining javobgarligi, mehmonxona va restoranlarda pul, hujjatli qimmatli

qog'ozlar va boshqa qimmatbaho narsalarni saqlash, mehmonxona yoki restoran egasi javobgarligining cheklanishi, mehmonxona yoki restoran egasini javobgarlikdan ozod qilish, mehmonning yetkazilgan zararni qoplashni talab etish huquqining bekor bo'lishi, mehmonxona yoki restoran egasining garov huquqi kabi qoidalar belgilangan. Fikrimizcha, FKga ham Ozarbayjon FK tajribasidan kelib chiqib, "mehmonxona va restoranlarda omonat saqlash" nomli alohida paragrafni kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bugunga kelib omonat saqlash munosabatlarining obyektlari tez buziladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan tortib insonning tana a'zolari va genomini saqlashga qadar bo'lgan doirani qamrab olmoqda. Bunda inson biologik materialini saqlashga bo'lgan qiziqish keyingi yillarda ortib bormoqda. Biobankingning muhim ahamiyatga qaramasdan bugungi kunda ushbu sohani tartibga solishning huquqiy bazasi hali mamlakatimizda shakllantirilmagan va bu turdagi faoliyat yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Ayni paytda biobankingni shartnomaviy-huquqiy tartibga solish zarurati ham ortib borayotganligiga e'tibor qaratish lozim. Milliy sivilistikada bunday turdagi shartnoma mavjudligi, uning yuridik tavsifi borasida hozircha muayyan fikrlar bildirilishi yoki bunga e'tibor qaratish holati uchramaydi. Tadqiqot ishida biobankda omonat saqlashga oid bir qator olimlar (M.H.Малеина, А.Г.Барабашев, Д.В.Пономарева, Е.В.Балановская, Е.В.Брызгалина)ning fikrlari va xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasining "Biobanklar to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish zarurligi asoslantiriladi.

Tadqiqot ishida keltirilishicha, so'nggi yillarda paydo bo'lgan, ammo qonun chiqaruvchining e'tiboridan chetda qolgan omonat saqlash shartnomalarining ayrim turlarini tartibga solish muhim ahamiyatga ega. Bunda inson biomaterialini omonat saqlash bo'yicha qoidalarining FKga kiritilishi biobanklar faoliyati bilan bog'liq bir qator muammolarni hal qilishga imkon beradi. Shu munosabat bilan "Inson biomaterialini saqlash" nomli 900-3-moddani FKga kiritish lozim bo'ladi.

Tadqiqot ishining to'rtinchi bobi – **"Tovar omborida omonat saqlash shartnomasini huquqiy tartibga solish muammolari"**ga bag'ishlangan. Unda tovar omborida omonat saqlash shartnomasining tadbirkorlik faoliyatidagi o'rni, tovar ombori turlari va ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning shartnomaviy-huquqiy tartibga solinishi, tovar omborida omonat saqlash hujjatlarining huquqiy tabiati kabi masalalar yoritilgan.

Tadqiqot ishida omborda tovarlarni saqlashning tarixiy rivojlanishi, self storage (shaxsiy saqlash)ning huquqiy asoslarining shakllanishi tadqiq etiladi. Dissertatsiyada tovar omborida omonat saqlashning huquqiy mohiyatiga oid huquqshunos olimlar (M.B. Зимелева, В.П. Нагребелный, В.И. Савин, Ю.В.Кривенко, А.С. Коломацкая, Ю.С. Соловева)ning fikrlari hamda bir qator xorijiy mamlakatlar (Armaniston, Ukraina, Belarus, RF) qonunchiligi o'rganilib, tovar ombori omonat saqlashni tadbirkorlik faoliyati sifatida amalga oshiruvchi va omonat saqlash bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyekti ekanligini asoslantirilgan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida FKning 901-moddasiga "tovar ombori" tushunchasini kiritishga oid taklif ilgari surilgan.

Tovar omborida omonat saqlash xizmatlariga bugungi kunda quyidagilarni kiritish mumkin: co-packing (qayta qadoqlash) xizmatlari; multipack (konteynerli qadoqlash), twinpack (ikkitalik upakovkalash); maxsus o‘ramga upakovkalash; mijozlarning texnik topshiriqlariga muvofiq upakovkalash; qayta upakovkalash; stikerlash); cross-docking (o‘zaro bog‘lanish) xizmatlari, kurer xizmatlari va h.k.

Bugungi kunda tovar omborlari va ularning faoliyatini tartibga soluvchi umumiy tusga ega bo‘lgan qonun hujjati mavjud emas. Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasining “Tovar omborlari to‘g‘risida”gi qonunini qabul qilish vaqti keldi. Unda tovar ombori tushunchasi, uni tashkil etish tartibi, asoslari, tovar omborini litsenziyalash, faoliyat turini aniqlash qoidalari, tovar ombori shartnomasi va tovar ombori hujjatlari haqidagi normalar o‘z ifodasini topishi kerak.

Omonat saqlash rejimiga ko‘ra omborda omonat saqlash shartnomasi quyidagi turlarga bo‘linadi: a) tovarlarni egasizlantirib omonat saqlash shartnomasi; b) tovarlarni alohida omonat saqlash shartnomasi; v) tovarlarni tasarruf etish huquqi bilan omonat saqlash shartnomasi; g) tovarlarni keyinchalik qaytarib sotib olish huquqi bilan mulk qilib topshirishni nazarda tutuvchi REPO operatsiyalari bo‘yicha omonat saqlash.

Bundan tashqari mazkur bobda dunyoning ko‘plab mamlakatlari (Buyuk Britaniya, Germaniya, Daniya, Islandiya, Italiya, Niderlandiya, Norvegiya, AQSh, Finlyandiya, Fransiya, Shvetsiya, Yaponiya)da qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish xizmat ko‘rsatish va ishlab chiqarish kooperativlarning yordami bilan amalga oshirilishi tahlil qilinib, bugungi kunda amaliyotda yaratilgan va faoliyati yo‘lga qo‘yilgan “agrologistika platformasi”, “zaxiralar logistikasi”, “ishlab chiqarish va zaxiralarni boshqarish muammolari jamiyati”, “logistika va tarqatishni boshqarish instituti”, “logistika markazi”, “ishlab chiqarishdagi logistika assotsiatsiyasi” va turli “logistika uyushma”larining ijobiy tomoni o‘rganildi. Shulardan kelib chiqib, hozirda tovarlarning jahon miqyosida keng harakatlanishida logistika xizmati muhim ahamiyat kasb etishi yuzasidan xulosalar asoslantirildi. Biroq, milliy qonunchiligimizda, bugungi kunda logistik omborlarning huquqiy rejimini belgilash hamda ularning odatdagi tovar omborlariga qaraganda afzalliklaridan kelib chiqib keng joriy etish yo‘lga qo‘yilmaganligi, bu esa o‘z navbatida huquqiy tartibga solishdagi bo‘shliqlar va bu borada tanlanishi lozim bo‘lgan huquqiy yondashuvning aniq belgilanmaganligi bilan tavsiflanishi, logistik omborlar faoliyatiga nisbatan qo‘llaniladigan huquq normalarini aniqlashtirish, transchegaraviy yuklarga logistika omborlari xizmatlarini ko‘rsatishning huquqiy asoslarini yaratish lozimligi asoslab berildi.

Muallifning yozishicha, omonat saqlashga mo‘ljallangan omborlardan yana biri – bu konsignatsiya ombori hisoblanadi. Omborning bu turi tovar omborlarining boshqa turlaridan farqli ravishda tovarlarni saqlash bilan birga uni realizatsiya qilish bilan shug‘ullanganligi uchun ham o‘ziga xos alohida rejimga ega hisoblanadi. Shunga qaramasdan, omonat saqlashning ushbu turi qonunchilik darajasida belgilanmaganligi sababli mazkur huquqiy konstruksiyaning mavjudligi hamda uning afzalligi tadbirkorlik subyektlari uchun ham, huquqshunoslar uchun ham ma’lum emas. Bu esa o‘z navbatida, ushbu shartnoma orqali iqtisodiyotni rivojlantirishga bo‘lgan urinishlarga amalga oshirishni istisno etadi. Shunday ekan

ushbu bo'shliqni to'ldirish maqsadida FK 51-bobini "Konsignatsiya omborida omonat saqlash" nomli 3¹- § bilan to'ldirish va unda shu yo'nalish faoliyatini xususiyatidan kelib chiqib, uni tartibga soladigan moddalarni ifodalash lozim bo'ladi.

Dissertatsiyada ombor hujjatlari: oddiy ombor guvohnomasi va ikki qismli ombor guvohnomasi (varrant)ning huquqiy tabiati hamda mohiyati tadqiq etiladi. Dissertant fikricha, ikki qismli ombor guvohnomasining qimmatli qog'oz sifatidagi amal qilish bugungi kunda yo'lga qo'yilmagan va unidan foydalanish kuzatilmaydi.

Ishda keltirilishicha, fuqarolik huquqi doktrinasida nazariyotchi olimlar o'rtasida ombor guvohnomalarining huquqiy tabiatiga oid yakdil yondashuv mavjud emas. Xususan, bir qator olimlar (М.И. Брагинский, В.В. Витрянский, Ф.О. Гудков, В.Л. Яростский) ombor guvohnomasini qimmatli qog'ozlarning alohida turi sifatida tavsiflaydi. Qolganlar esa (Б.И. Пугинский, А.Г. Неверов, aksincha, ombor guvohnomalarining (shuningdek barcha tovarni tasarruf qilish imkonini beruvchi hujjatlar ham) qimmatli qog'oz hisoblanmasligini qayd etishadi.

Tadqiqotda tovar omboriga oid qator xorijiy mamlakatlar (AQSh, Angliya, Germaniya) tahlil qilinib, ularda tovar omborida omonat saqlash shartnomasining asosiy belgilariga quyidagilarni sanab o'tilgan: shartnomaning maxsus predmeti – tovar, subyektlar tarkibi – tovar ombori.

XULOSA

"Omonat saqlash munosabatlarning fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi" mavzusida olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy nazariy, qonun ijodkorligi va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarga kelindi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Bugungi kunda majburiyat-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi va amalga oshirilishida raqamli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, shartnomalarni tuzish, ularni ijro qilish, xususan tovarlar sotish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish sohalarida kontragentlar bilan ishlashda sun'iy intellektdan faol foydalanish kuzatilmoqda. Bu jihatdan omonat saqlash, ya'ni o'zgaga tegishli bo'lgan mulkni muayyan muddat saqlashda ham muhim o'ringa ega. Bunda ashyoni saqlovga qabul qilish qilish, uning miqdori va xususiyatlarini aniqlash orqali saqlash rejimini belgilashda (ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va tez buziladigan tovarlarda) sun'iy intellektdan foydalanish ustuvorlikka ega. Buning uchun tegishli huquqiy asoslarni yaratish hamda sun'iy intellekt orqali ashyoni saqlash rejimini belgilashga oid shartnomaviy-huquqiy konstruksiyani yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Fikrimizcha, bunday shartnomaviy-konstruksiya sifatida aralash shartnomalar modelidan foydalanish o'rindir.

2. Hozirda tovarlarning jahon miqyosida keng harakatlanishida logistika xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. Logistika xizmatini esa logistik tovar omborlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Logistik tovar omborining faoliyati va u tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar ham mohiyatan tovar (ashyo)ni but holda belgilangan muddatda saqlash hisoblanadi. Biroq bugungi kunda logistik

omborlarning huquqiy rejimini belgilash hamda ularning odatdagi tovar omborlariga qaraganda afzalliklaridan kelib chiqib keng joriy etish yo‘lga qo‘yilmagan. Bu esa o‘z navbatida huquqiy tartibga solishdagi bo‘shliqlar va bu borada tanlanishi lozim bo‘lgan huquqiy yondashuvning aniq belgilanmaganligi bilan tavsiflanadi. Logistik omborlar faoliyatiga nisbatan qo‘llaniladigan huquq normalarini aniqlashtirish, transchegaraviy yuklarga logistika omborlari xizmatlarini ko‘rsatishning huquqiy asoslarini yaratish lozim.

3. Dissertatsiyada dunyoda asosiy sanaladigan ikkita doktrina doirasida omonat saqlash munosabatlarining, ya‘ni titulli egalik qilish (umumiy qit‘a huquqida) va kamroq egalik qilish (Crap law “jinnicha qonun”, Own less, anglo sakson huquqi tizimida) nazariyalari tahlil qilinib, O‘zbekistonda “kamroq egalik qilish”ning ayrim elementlari: shartnomada belgilangan “ozod etish” shartlari bajarilganda “kamroq egalik qilish”, “kafolat berishdan voz kechish”, “yuk topshiruvchining sudga murojaat qilish huquqidan voz kechishi”, shuningdek, garchi saqlovchi nohaqligi to‘liq ayon bo‘lgan holda ham yuk topshiruvchi o‘zining huquqlarini ta‘minlash maqsadida sudga murojaat qilishida boj va javobgarning advokat xizmati to‘lovlarini ham to‘lashi lozimligini nazarda tutuvchi “kompensatsiya to‘lovi” kabi qoidalarni qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha fikrlar ilgari surilgan.

4. Tovar omborida omonat saqlash munosabatlarini huquqiy tartibga solishda qimmatli qog‘ozlar vositasidan ham foydalanilishi qonunchilikda belgilangan. Biroq amalda bu qimmatli qog‘ozlarning qo‘llanilishi va ularning muomalasi kuzatilmaydi. Ayni paytda tovarlar harakatlanishi tezligining ortishi va bu jarayoning osonlashuvi tovar omborida omonat saqlash jarayonlarida qo‘llaniladigan qimmatli qog‘ozlarga nisbatan talablarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Chunki, tovar omborida omonat saqlashda qo‘llaniladigan “ikki qismli ombor guvohnomasi”ning huquqiy tabiati noaniq bo‘lganligi sababli mazkur qimmatli qog‘ozdan foydalanish ham kuzatilmaydi.

5. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida klasterlar tizimi keng joriy etilayotgan hozirgi sharoitda “zaxiralar logistikasi”ni joriy etish muhimdir. Zero, mamlakatimizda qishki oziq-ovqat mahsulotlarini g‘amlash, bu mavsumda narxlarning sun‘iy ko‘tarilib ketishining oldini olish kabi masalalar dolzarb bo‘lib qoladi. Shu sababli zaxiralarni logistikasining maqsadi – zaxiralar bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari iste‘molchilarining va ishlab chiqarish jarayonining ehtiyojlarini qondirish o‘rtasida murosaga erishishni o‘z ichiga oladi. Bu ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kontsentratsiyasiga, qishloq xo‘jaligi korxonalarini zaxiralari hajmini maqbullashtirishga yordam beradi. Buning uchun “zaxiralar logistikasi” tizimini joriy etish, bu tizim amal qilishi uchun tuziladigan shartnomalar: mahsulotni yetishtirish, yetkazib berish, omonat saqlash va taqsimlash shartnomalarini o‘z ichiga oladigan “zaxiralar logistikasi” shartnomasi konstruksiyasini yaratish zarur.

6. Rivojlangan davlatlarda insonning biologik materiallarini saqlash xizmatini keng rivojlanmoqda. Bu bir tarafdin tibbiyot sohasidagi tadqiqotlarni rivojlantirish uchun zarur bo‘lsa, ikkinchi tomondan jismoniy shaxslarning sog‘ligini saqlash, tashxis qo‘yish va uning salomatligi bilan bog‘liq ma‘lumotlarni tahlil qilish uchun muhimdir. Shu munosabat bilan “Biobanklar to‘g‘risida”gi qonuni ishlab chiqish

va qabul qilish hamda “Inson biomaterialini saqlash” nomli 900-3-moddani FKga kiritish lozim bo‘ladi.

7. Tovarlar aylanmasini maqbul, samarali va egiluvchan bo‘lishini ta’minlash maqsadida konsignatsiya omborida omonat saqlash shartnomasiga oid qoidalarni omonat saqlashning alohida turi sifatida FKda ifodalash maqsadga muvofiqdir.

8. Bugungi kunda mamlakatimizda turizmga bo‘lgan talab va ehtiyoj ortib bormoqda. Bunday vaziyatda sayyohlar va tashrif buyuruvchilarga sifatli xizmat ko‘rsatishning muhim qismlaridan biri mehmonxona va restoranlarda omonat saqlash hisoblanadi. Biroq amaldagi qonunchilikda omonat saqlashning mazkur turi yetarli darajada tartibga solinmagan. Ayniqsa, omonat saqlovchining javobgarligi, uni javobgarlikdan ozod qilish asoslari, omonat saqlovchining garov huquqiga oid masalalar qonunchilikda yetarlicha tartibga solinmagan. Shundan kelib chiqib FKning 51-bobiga alohida paragraf sifatida “Mehmonxonalar va restoranlarda omonat saqlash” nomli paragrafni kiritish lozim.

9. Turli davlat tashkilotlari, ayniqsa huquqni muhofaza qilish organlarining binolariga tashrif buyuruvchilardan mobil aloqa vositalari: telefon, fleshka va boshqa har qanday yozib olish, saqlash va uzatish qurilmalarini tegishli quticha (belgilangan joy)ga qo‘yib ichkariga kirishi talabi mavjud. Bu holatda tashrif buyuruvchi o‘zining mulkini vaqtinchalik binoning saqlov joyida qoldiradi. Mazkur jarayon va tashrif buyuruvchining telefon va boshqa qurilmalarini saqlash tartibi tegishli idoraning ichki yo‘riqnomalari bilan tartibga solinadi. Bu vaziyatda mol-mulkni saqlashga topshirgan shaxs va uni saqlovchi o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga nisbatan qaysi qoidalar qo‘llanilishi, ular o‘rtasidagi huquq va majburiyatlarga nisbatan ommaviy-huquqiy yoki xususiy-huquqiy normalar tatbiq etilishi kabi masalalar ochiq qolib ketmoqda. Zero, o‘zganing mulkini boshqa shaxs tomonidan saqlab turish omonat saqlash shartnomasi konstruksiyasiga bo‘ysundirilgan ekan, bu holatga nisbatan ham shunday tartib amal qilishi zarur.

10. Ashyoni “saqlash” o‘ziga xos faktik harakatlarni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi va mazkur harakatni amalga oshirishga haqli shaxs – omonat saqlovchida mulkka nisbatan egalik qilish huquqi mavjud bo‘lmaydi. Ashyoni “saqlash” ashyoviy huquqlar tizimida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan kategoriya sanaladi. Bir qator xorijiy mamlakatlarda ashyoni saqlash alohida huquq sifatida e’tirof etiladi. O‘zbekiston qonunchiligi bo‘yicha ashyoni saqlash mulkka egalik qilishning tarkibiy qismi sifatida tavsiflanadi. Xususan, ashyoni saqlayotgan shaxs ashyoga nisbatan muayyan tajovuzlar to‘xtatishni yoki mulkdor huquqlarining buzilmasligini istalgan shaxsdan talab qilishga haqli hisoblanadi.

Bu esa o‘z navbatida, ashyoni saqlash majburiyati mulkka egalik qilish huquqining muayyan elementlarini ham ifodalanishi ko‘rsatadi. Biroq har qanday holatda ham ashyoni saqlash harakati huquq emas, balki majburiyat hisoblanadi va bu majburiyat zimmasida bo‘lgan shaxs tomonidan yuridik emas, asosan faktik harakatlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

11. Ma’lumki, bugungi kunda tovar omborlari va ularning faoliyatini tartibga soluvchi umumiy tusga ega bo‘lgan qonun hujjati mavjud emas. Shu sababli tovar omborlarini tashkil etish, ular faoliyatini boshlash uchun lozim bo‘lgan shartlarni aniqlash turli xildagi hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda. Fikrimizcha, mazkur

kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Tovar omborlari to‘g‘risida”gi qonunini qabul qilish lozim. Mazkur qonunda tovar ombori tushunchasi, ularni tashkil etish tartibi va asoslari, tovar omborini litsenziyalash, faoliyat turini aniqlash qoidalari, tovar ombori shartnomasi va tovar ombori hujjatlari haqidagi normalar o‘z ifodasini topishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Shu bilan birga, tovar omborlarini sertifikatlash va uni o‘tkazish tartibi, shuningdek tovar omborida omonat saqlash faoliyatini amalga oshirish uchun sertifikat berish hamda uni chaqirib olishga vakolatli organni belgilovchi nizom ishlab chiqish hamda qabul qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

12. Ta’kidlash lozimki, fuqarolik huquqi nazariyasi va amaliyotda tovar saqlashga mo‘ljallangan omborlarining turlari haqida alohida fikrlar va ko‘rsatmalar uchramaydi. Biroq, FKning 902-moddasi umumiy foydalanishdagi ombor to‘g‘risidagi ba’zi qoidalarni o‘zida belgilaydi. Unga ko‘ra, agar qonun hujjatlariga muvofiq tovar ombori tovarlarni saqlash uchun chegaralangan doiradagi shaxslardan qabul qilishi mumkin bo‘lgan omborlar jumlasiga kiritilgan bo‘lmasa, u umumiy foydalanishdagi ombor deb hisoblanadi. Bugungi kunda umumiy tovar omborlari xususida mamlakatimizda alohida qonun hujjatlari uchramasligini alohida e’tirof etib o‘tish lozim. Shu sababli umumiy tovar omborlarining faoliyati omonat saqlash bo‘yicha belgilangan umumiy qoidalar va FKdagi tovar omboriga bag‘ishlangan normalar asosida amalga oshirilmoqda. Lekin umumiy foydalanishdagi tovar omborlari faoliyatini tartibga solishda FK normalarini yetarli deb bo‘lmaydi. Shu munosabat bilan umumiy tovar omborlari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan maxsus qonun hujjatini qabul qilish lozim.

13. FKning 51-bobi 2-§ amaliyotda mavjud bo‘lgan omonat saqlash alohida turlarining barchasini qamrab olmaydi. Shu bois fuqarolik qonunchilikni takomillashtirish hamda qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti uyg‘unligini ta’minlash maqsadida FKning mazkur bobi va paragrafiga avtomototransport vositalarini avtoturargohlarda omonat saqlash munosabatlarini tartibga soluvchi omonat saqlashning alohida turi sifatida avtoturargohlarda avtomototransport vositalarini saqlashni kiritish maqsadga muvofiq.

14. Avtoturargohlarda avtomototransport vositalarini omonat saqlashni belgilash borasidagi taklifdan kelib chiqib FKning 51-bobi 2-§ ga omonat saqlash shartnomasining ushbu turiga nisbatan quyidagi ta’rifni belgilash lozim: “Pul to‘lanadigan avtoturargohlarda omonat saqlash shartnomasi bo‘yicha omonat saqlovchi – fuqarolarga ularning avtomototransport vositalarini saqlash bo‘yicha faqat shaxsiy oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun doimiy tadbirkorlik faoliyati sifatida haq evaziga xizmat ko‘rsatuvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor yuk topshiruvchidan bunday vositalarni qabul qilishi va but holda qaytarish majburiyatlari, yuk topshiruvchi esa buning uchun haq to‘lash va saqlash muddati tamom bo‘lganidan keyin mol-mulkni qaytarib olish majburiyatini oladi”.

15. Avtoturargohlarda avtomototransport vositalarini omonat saqlash shartnomasi ommaviy va qo‘shilish shartnomasi sifatida talqin etilishi lozim. Taraflarning kelishuviga ko‘ra pulli avtoturargohlarda avtomototransport vositalari omonat saqlashga tashkilotlardan ham qabul qilinishi mumkin.

16. Yuk topshiruvchilarning qiziqishlarini kuchaytirish va ularning omonat saqlash shartnomasini tuzishdan manfaatdorligini orttirish hamda sud xatoliklarining oldini olish maqsadida qonunchilikda quyidagi ta'rifni kiritish lozim: "transport vositasining tovar ko'rinishi – avtomototransport vositalarining qo'riqlanadigan pulli avtoturargohida omonat saqlashga topshirilayotgan yaxshi tashqi ko'rinish".

II. Qonun ijodkorligi sohasidagi takliflar

1. FKning **82-moddasi birinchi qismini** quyidagi mazmunda ifodalashni taklif etish mumkin:

"Fuqarolik huquqlarining obyektlari erkin suratda boshqa shaxslarga berilishi yoki universal huquqiy vorislik (meros qilib olish, yuridik shaxsni qayta tashkil etish) tartibida yoxud boshqa usul bilan, agar ular muomaladan chiqarilmagan yoki ularning muomalada bo'lishi cheklab qo'yilmagan bo'lsa, bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tishi **yoki muayyan muddat bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o'tib turishi mumkin**".

2. FKning "**Qimmatli qog'ozlarning turlari**" deb nomlanadigan **96-1-modda** bilan to'ldirish va uni quyidagi tahrirda ifodalash lozim:

"Hujjatli qimmatli qog'ozlar taqdim etuvchi (taqdim etuvchiga beriladigan qimmatli qog'ozlar), orderli va egasining nomi yozilgan bo'lishi mumkin.

Taqdim etuvchiga beriladigan qimmatli qog'oz – bu hujjatli qimmatli qog'oz bo'lib, uning egasi hujjat bo'yicha ijroni talab qilishga vakolatli bo'lgan shaxs deb e'tirof etiladi.

Agar qimmatli qog'oz uning nomiga berilgan yoki asl egasidan unga indossamentlar ketma-ketligi bilan o'tgan bo'lsa, uning egasi uning ijrosini talab qilishga vakolatli shaxs deb e'tirof etilgan hujjatli qimmatli qog'ozdir.

Egasining nomi yozilgan qimmatli qog'oz hujjatli qimmatli qog'oz bo'lib, quyidagi ko'rsatilgan shaxslardan biri uning ijrosini talab qilishga vakolatli shaxs deb e'tirof etiladi:

majburiyatli shaxs tomonidan yuritiladigan yoki uning nomidan ish yurituvchi va tegishli litsenziyaga ega bo'lgan hujjatlarda huquq egasi sifatida ko'rsatilgan qimmatli qog'oz egasi. Qonunda bunday hisobga olishni tegishli litsenziyaga ega bo'lgan shaxsga topshirish majburiyati nazarda tutilishi mumkin;

qimmatli qog'oz egasi, agar qimmatli qog'oz uning nomiga berilgan bo'lsa yoki unga talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish (tsessiya) uchun belgilangan shaklda yoki egasining nomi yozilgan topshirish ustxatini yozish yo'li bilan birinchi egasidan talabdan boshqa shaxs foydasiga voz kechish tartibida o'tkazilgan bo'lsa.

Taqdim etuvchiga beriladigan qimmatli qog'ozlarni chiqarish yoki boshqa shaxslarga o'tkazib berishga qonun hujjatlarida belgilangan hollarda yo'l qo'yiladi.

Muayyan hujjatli qimmatli qog'ozlarni egasining nomi yozilgan yoki orderli qimmatli qog'ozlar sifatida chiqarish yoki boshqa shaxsga o'tkazish imkoniyati qonun bilan istisno qilinishi mumkin.

Agar ushbu Kodeksda, qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa yoki qimmatli qog'ozlariga bo'lgan huquqlarni belgilashning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqmasa, ularga nisbatan huquq egasi buxgalteriya hisobi hujjatlariga muvofiq belgilanadigan ro'yxatga olingan egasining nomi yozilgan qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi".

3. FKning **875-moddasining birinchi qismini** quyidagi mazmunda ifodalashni taklif etish mumkin:

“Omonat saqlash shartnomasi bo‘yicha bir taraf (omonat saqlovchi) unga ikkinchi taraf (yuk topshiruvchi) bergan **ko‘char ashyoni, ushbu Kodeks va qonun hujjatlarida nazarda hollarda esa ko‘chmas ashyoni** saqlash va bu ashyoni **saqlagan** holda qaytarish majburiyatini oladi”.

4. FKning **885-moddani beshinchi qismi** sifatida quyidagi qoida kiritilishi va uning amaldagi beshinchi qismini oltinchi qism deb hisoblanishi maqsadga muvofiqdir:

“Yuridik shaxsning ta‘sis hujjatlarida yoki shartnomada ashyolarni tekinga saqlash nazarda tutilishi mumkin”.

5. FKning 889-moddasini quyidagi mazmundagi uchinchi qism bilan to‘ldirish zarur:

“**Omonat saqlovchi boshqa majburiyatlarini ham bajarmaganligi (lozim darajada bajarmaganligi) uchun javobgar bo‘ladi**”.

6. FKning **890-moddasini** quyidagi mazmundagi **to‘rtinchi-oltinchi** qismlar bilan to‘ldirish zarur:

“Professional omonat saqlovchi ashyoning yo‘qolishi (etishmasligi), shikastlanishi natijasida yetkazilgan zararni to‘liq hajmda qoplaydi.

Ashyoni saqlash jarayonida uning biologik yoki fizik-kimyoviy xususiyatlarining tabiiy o‘zgarishi tufayli normal yo‘qotish yuzaga kelsa saqlovchi javobgar bo‘lmaydi. Normal yo‘qotish me‘yorlari qonunchilik hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lishi lozim.

Ashyoning qiymatini aniqlash ixtisoslashgan tashkilot tomonidan shu turdagi mol-mulkning ashyo omonat saqlashga topshirilayotgan paytdagi real qiymatidan kelib chiqib amalga oshiriladi”.

Omonat saqlashga topshirilayotgan ashyoning qiymatini baholash faqat tegishli baholovchi tashkilot tomonidan amalga oshirilishi va mavjud tariflash, stavkalar, hisob-kitoblar va baholarni hisobga olinishi zarur.

7. FKning 896-moddasini quyidagi tahrirda belgilash lozim:

“896-modda. Qimmatliklarni bankda saqlash

Bank qimmatli qog‘ozlar, qimmatbaho metallar va toshlar, boshqa qimmatbaho buyumlar va boshqa qimmatbaho narsalarni, shu jumladan hujjatlarni saqlashga qabul qilishi mumkin.

Bankda qimmatliklarni saqlash to‘g‘risidagi shartnomaning tuzilganligi bank tomonidan yuk beruvchiga alohida seyf hujjati berilishi bilan tasdiqlanadi, uning taqdim etilishi saqlanayotgan boyliklarni yuk beruvchiga berish uchun asos bo‘ladi”.

8. FKga **“Yakka tartibdagi bank seyfida qimmatliklarni saqlash”** nomli **896-1-moddani** kiritish va uni quyidagi mazmunda belgilash zarur:

“896-1-modda. Yakka tartibdagi bank seyfida qimmatliklarni saqlash

Bankda qimmatliklarni saqlash shartnomasida ularni yuk topshiruvchi (mijoz) yordamida yoki bank tomonidan muhofaza qilinadigan yakka tartibdagi bank seyfi (seyf, bankdagi alohida xona) taqdim etgan holda saqlash nazarda tutilishi mumkin.

Yakka tartibdagi bank seyfida qimmatbaho ashyolarni saqlash shartnomasi bo‘yicha mijozga qimmatbaho ashyolarni seyfga joylashtirish va ularni seyfdan

olish huquqi beriladi, buning uchun unga mijozning shaxsini aniqlash uchun yoki mijozning seyf va uning tarkibiga kirish huquqini tasdiqlovchi boshqa belgi yoki hujjat, seyf kaliti, ruxsat beruvchi karta berilishi kerak.

Shartnoma shartlarida mijozning bankda alohida seyfda saqlanadigan qimmatbaho buyumlar bilan ishlash huquqi nazarda tutilishi mumkin. Mijoz tomonidan alohida seyfdan foydalangan holda bankda qimmatbaho ashyolarni saqlash shartnomasi bo'yicha bank mijozdan seyfda saqlanishi kerak bo'lgan qimmatbaho narsalarni qabul qiladi, mijoz tomonidan ularning seyfga joylashtirilishi va olib qo'yilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Mijozga yakka tartibdagi bank seyfini taqdim etgan holda bankda qimmatbaho narsalarni saqlash shartnomasiga binoan, bank mijozga qimmatbaho narsalarni seyfga joylashtirish va ularni hech kimning nazorati ostida bo'lmagan seyfdan olish imkoniyatini beradi. Bank mijozga berilgan seyf joylashgan binolarga kirish ustidan nazoratni amalga oshirishi shart. Agar mijozga yakka tartibdagi bank seyfini taqdim etgan holda bankda qimmatliklarni saqlash shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bank seyfini saqlanmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar u saqlash shartlariga ko'ra seyfga mijozning ruxsatisiz istalgan shaxs foydalanishi mumkin bo'lmagan yoki fors-major holatlari tufayli mumkin bo'lganligini isbotlasa.

Ushbu Kodeksning ijara shartnomasi to'g'risidagi qoidalar bank seyfini boshqa shaxsga seyfnings saqlanishi uchun bank javobgarligisiz foydalanishga berish to'g'risidagi shartnomaga nisbatan qo'llaniladi".

9. FKning **898-moddasini** quyidagi tahrirda belgilash lozim:

"898-modda. Ashyoni tashkilotlarning **belgilangan joyida** saqlash

Agar tashkilotlarning **belgilangan joyida** ashyolarni haq evaziga saqlash haqida ashyoni saqlashga topshirish vaqtida kelishib qo'yilgan yoki boshqa ochiq usulda shartlashilgan bo'lmasa, ularda ashyo saqlash bepul hisoblanadi.

Ashyo **tashkilotlarning belgilangan joyida** saqlash uchun qabul qilib olinganligini tasdiqlash uchun saqlovchi yuk topshiruvchiga nomerli jeton yoki ashyo saqlash uchun qabul qilib olinganligini tasdiqlovchi boshqa belgi beradi.

Tashkilotlarning belgilangan joyiga topshirilgan ashyo jeton (**tasdiqlovchi boshqa belgi**) taqdim etuvchiga beriladi. Bunda saqlovchi jeton (**tasdiqlovchi boshqa belgi**) taqdim etuvchining ashyoni olishga vakolatlarini tekshirishi shart emas. Biroq, omonat saqlovchi jeton (**tasdiqlovchi boshqa belgi**) uni taqdim etuvchiga qarashli ekanligiga shubhalansa, ashyoni jeton (**tasdiqlovchi boshqa belgi**) taqdim etuvchiga qaytarib berishni to'xtatib turishga haqli.

Yuk topshiruvchi jeton (**tasdiqlovchi boshqa belgi**)ni yo'qotib qo'ygan, lekin uning ashyolarni **belgilangan joyiga** topshirganligi yoki ashyolarning unga tegishliligi saqlovchida shubha tug'dirmagan yoxud yuk topshiruvchi tomonidan isbotlangan hollarda ham saqlovchi **belgilangan joydagi** ashyoni berishga haqli. Tashkilotlarning ashyolar **belgilangan joylarda** but saqlanishi uchun javobgarligi, shuningdek talab qilib olinmagan ashyolarni saqlash muddatlari ushbu Kodeks 897-moddasining to'rtinchi va beshinchi qismlarida ko'rsatilgan qoidalar bo'yicha belgilanadi".

10 FKga avtotransport vositalarini saqlash masalalariga bag'ishlangan 990-1-moddani kiritish zarur:

“900-1-modda. Avtotransport vositalarini saqlash

Pul to'lanadigan avtoturargohlarda omonat saqlash shartnomasi bo'yicha omonat saqlovchi – fuqarolarga ularning avtomototransport vositalarini saqlash bo'yicha faqat shaxsiy oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun doimiy tadbirkorlik faoliyati sifatida haq evaziga xizmat ko'rsatuvchi yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor yuk topshiruvchidan bunday vositalarni qabul qilishi va but holda qaytarish majburiyatlari, yuk topshiruvchi esa buning uchun haq to'lash va saqlash muddati tamom bo'lganidan keyin mol-mulkni qaytarib olish majburiyatini oladi.

Agar transport vositalarini saqlash tadbirkorlik subyekti tomonidan amalga oshirilsa, bunday shartnoma ommaviy hisoblanadi.

Avtotransport vositasini bokslarda va garajlarda, maxsus to'xtash joylarida saqlash shartnomasi bo'yicha qo'riqchi ularga ruxsat etilmagan shaxslarning kirishiga yo'l qo'ymaslik va yuk topshiruvchining birinchi iltimosiga binoan transport vositasini qaytarish majburiyatini oladi.

Avtotransport vositalarini saqlash shartnomasi, agar qonun hujjatlarida yoki kooperativ ustavida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garaj-qurilish yoki garaj kooperativi va ularning a'zolari o'rtasidagi munosabatlarga ham tatbiq etiladi.

Avtotransport vositasini saqlashga qabul qilish chek (raqam, token) bilan tasdiqlanadi”.

11. FKga qo'riqlash shartnomasiga oid qoidalarni kiritish va uni yangi modda sifatida quyidagicha belgilash zarur:

“900-2-modda. Qo'riqlash shartnomasi.

Qo'riqlash shartnomasiga ko'ra, tadbirkorlik subyekti bo'lgan qo'riqchi qo'riqlanadigan shaxs yoki mulkning daxlsizligini ta'minlash majburiyatini oladi. Bunday mulkning egasi yoki qo'riqlanadigan shaxs shartnomada nazarda tutilgan shaxsiy va mulkiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi va qo'riqchiga har oy belgilangan to'lovni to'lashi shart”.

12. FKni “Inson biomaterialini saqlash” nomli **900-3-modda** bilan to'ldirish va unda insonning biologik materiallari, u bilan bog'liq turli xildagi tibbiy axborot va ma'lumotlarni saqlash maxsus biobanklar tomonidan omonat saqlash shartnomasi asosida amalga oshirilishiga oid qoidalarni ifodalash maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, inson biomaterialini saqlash bilan bog'liq munosabatlarga doir normani ishlab chiqishda tibbiyot xususiyatlari va xorijiy tajribadagi amaliyotni inobatga olib, mazkur munosabatga oid qoidalarni ifodalash maqsadga muvofiq bo'ladi.

13. FKning **901-moddasini** quyidagi mazmunda ifodalashni taklif etish mumkin:

“Tovar ombori – bu tovarlarni saqlaydigan va saqlash bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatadigan tadbirkorlik subyekti”.

14. Tovar omborida omonat saqlash shartnomasiga FKning **903-moddasida** berilgan ta'rif ushbu munosabatlarni yetarli darajada o'zida ifoda eta olmagan. Zero,

mazkur moddadagi ta'rifda shartnomaning ikkinchi tomoni bo'lgan yuk topshiruvchining majburiyatlari belgilanmagan. Mazkur kamchilikni bartaraf etish maqsadida tovar omborida omonat saqlash shartnomasiga nisbatan quyidagicha ta'rif berish maqsadga muvofiq:

“Tovar omborda omonat saqlash shartnomasi bo'yicha tovar ombori (saqlovchi) tovar egasi (yuk topshiruvchi) tomonidan o'ziga topshirilgan tovarlarni haq evaziga saqlash va ularni to'liq holicha qaytarib berish majburiyatini oladi, **yuk topshiruvchi esa belgilangan muddatda o'ziga tegishli tovarlar qaytarib olish va shartnomada ko'zda tutilgan haqni to'lash majburiyati oladi**”.

15. FKga “Tovar omborida saqlashga topshirilgan tovarni sotish” nomli quyidagi mazmundagi **907-1-modda** bilan to'ldirish taklif qilinadi:

“Agar tovar omboriga saqlash uchun topshirilgan tovar bahosini ko'p miqdorda yo'qotishi yoki nobud bo'lishi xavfi yuzaga kelsa va omonat saqlovchi bu haqda yuk topshiruvchini xabardor qilish uchun vaqt qolmagan yoki buni imkoni bo'lmasa u tovarni sotishga haqli. Tovarlarni sotish amaldagi qonunchilikda belgilangan shartlar va tartibda amalga oshiriladi”.

16. FKning **909-moddasi ikkinchi qismining sakkizinchi xatboshisi** sifatida quyidagi qoidani kiritish zarur:

“agar omonat saqlashga topshirilgan tovar sug'urtalanishi lozim bo'lsa, sug'urta bahosi”.

17. FKning **910-moddasi uchinchi qismi** “ombor guvohnomasi” so'zlaridan keyin “**va garov guvohnomasiga**” so'zlarini kiritish taklif etiladi.

Ushbu qo'shimcha bilan, garovga oluvchi huquqlarining ta'minlanishini amalga oshadi.

18. FKga “**Varrant**” deb nomlangan **913-1-moddani** kiritish hamda quyidagi mazmunda uni belgilash lozim:

“Ombor guvohnomasi egasi garov guvohnomasi orqali omonatga qo'yilgan tovarni boshqa majburiyatning kafolati sifatida tovarlar ombordan (varrant) olib chiqilmasligi sharti bilan ularni garovga qo'yishi mumkin”.

19. FKga “**Orderli ombor guvohnomasi**” deb nomlangan **913-2-moddani** kiritish hamda quyidagi mazmunda uni belgilash lozim:

“Agar omonat saqlovchi orderli ombor guvohnomasini bersa, u indossament orqali uchinchi shaxsga berilishi mumkin”.

20. FKga “**Indossalangan ombor guvohnomasi bo'yicha javobgarlik**” deb nomlangan **913-3-moddani** kiritish hamda quyidagi mazmunda uni belgilash lozim:

“Agar ombor guvohnomasi indossament yo'li bilan berilgan bo'lsa, omonat saqlovchi ushbu guvohnoma egasi oldida unda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi, guvohnomada ushbu ma'lumotlar indossament ma'lumotlariga asoslanganligi aniq ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar omonat saqlovchi ma'lumotlarning noto'g'riligini bilgan bo'lsa, u ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan belgini qo'ygan bo'lsa ham javobgar bo'ladi.

Ashyolarni aralastirib saqlashda omonat saqlovchi ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan belgini qo'yishga haqli emas”.

21. FKga “**Indossamentning to‘g‘riligi prezumpsiyasi**” deb nomlangan **913-4-moddani** kiritish hamda quyidagi mazmunda uni belgilash lozim:

“Orderli ombor guvohnomasini bergan omonat saqlovchi saqlash uchun berilgan tovarni faqat ombor guvohnomasining qonuniy egasiga qaytarishi shart.

Agar garov ombor guvohnomasi berilgan bo‘lsa, omonat saqlovchi uni qaytarishni talab qilishi shart.

Omonat saqlovchi indossamentning to‘g‘riligini tekshirishga majbur emas. Topshirish ombor guvohnomasidagi tegishli ustxat bilan tasdiqlanadi”.

22. FKga “**Ombor guvohnomasini yo‘qolishi**” deb nomlangan **913-5-moddani** kiritish hamda quyidagi mazmunda uni belgilash lozim:

“Ombor yoki garov guvohnomasi yo‘qolgan yoki yo‘q qilingan taqdirda uning qonuniy egasi sudga ariza bilan murojaat qilib, yo‘qolgan hujjatni haqiqiy emas deb topishni va uning o‘rniga yangi guvohnoma berilishini talab qilishga haqli. Sud arizani alohida ish yuritish tartibida ko‘rib chiqadi.

Sud qarori asosida saqlovchi takroriy ombor guvohnomasini va garov guvohnomasini beradi”.

23. FKga “**Omonat saqlashga topshirilgan tovarlar garovi**” deb nomlangan **913-6-moddani** kiritish hamda quyidagi mazmunda uni belgilash lozim:

“Saqlash uchun omborga topshirilgan tovarlarni garovga qo‘yish uchun mulkdor garov guvohnomasiga maxsus yozuv (indossament) qo‘yishi va shu tarzda uni manfaatdor shaxsga topshirishi shart.

Indossamentda omonatchi, kreditorning shaxsi va majburiyat summasi ko‘rsatilishi kerak.

Garov guvohnomasining kreditorga topshirilganligi to‘g‘risida omonat saqlovchiga xabar qilinadi, u tegishli belgi qo‘yadi”.

24. FKga “**Garov huquqini ombor guvohnomasining yangi egasiga o‘tkazish**” deb nomlangan **913-7-moddani** kiritish hamda quyidagi mazmunda uni belgilash lozim:

“Tovarlarni saqlash xarajatlariga asoslanib omonat saqlovchida o‘z ixtiyorida turgan tovarlarni garovga qo‘yish huquqi vujudga keladi.

Agar ombor guvohnomasi indossament yo‘li bilan berilgan bo‘lsa, garov huquqi ombor guvohnomasining yangi egasiga nisbatan mavjud bo‘ladi”.

25. FKga “**Omonatga qo‘yilgan tovarlarni qaytarib olishga yo‘l qo‘yilmasligi**” deb nomlangan **913-8-moddani** kiritish hamda quyidagi mazmunda uni belgilash lozim:

“Omonat saqlovchi yuk topshiruvchidan saqlangan tovarni kelishilgan muddat tugagunga qadar, agar bunday muddat belgilanmagan bo‘lsa, topshirilgandan keyin uch oy o‘tgunga qadar olishni talab qilishga haqli emas”.

26. FKga “**Ombordan tovarlarni qabul qilish uchun qo‘shimcha muddatni belgilash**” deb nomlangan **913-9-moddani** kiritish hamda quyidagi mazmunda uni belgilash lozim:

“Agar omonat saqlash muddati tugaganidan keyin ombor guvohnomasi egasi tovarlarni ombordan qaytarib olishdan bosh tortsa, omonat saqlovchi buning uchun unga qo‘shimcha yetti kunlik muddat belgilashi shart. Agar ushbu muddatda ombor guvohnomasi egasi tovarni qabul qilmasa, saqlovchi ularni sotishga haqli.

Tovarni sotishdan tushgan tushum saqlovchiga tegishli xarajatlarni olib tashlab, ombor guvohnomasi egasiga o‘tkaziladi”.

27. Fikrimizcha, xorijiy davlatlar qonunchiligini tahlil qilib O‘zbekiston Respublikasining “Biobanklar to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

28. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Namunaviy avtoturargohlarda avtomototransport vositalarini omonat saqlash shartnomasini ishlab chiqish lozim va bu Namunaviy shartnoma pulli avtoturargohlar hamda yuk topshiruvchilar uchun tavsiyaviy tus kasb etishi va muayyan shartnomalar tuzish uchun namuna bo‘lib xizmat qilish zarur.

III. Huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 30.04.2022-yildagi PQ–232-son qarorining 13-band “b” kichik bandi sakkizinchi xatboshisi sifatida quyidagi normani kiritish lozim:

“Qo‘riqlanadigan avtomototransport vositalarining pulli avtoturargohlarida omonat saqlashga topshirilayotgan avtomototransport vositalarining yaxshi tashqi ko‘rinishi ushbu avtoturargoh tomonidan ta‘minlanadi. Bunda transport vositasining tovar ko‘rinishi – avtomototransport vositalarining qo‘riqlanadigan pulli avtoturargohida omonat saqlashga topshirilayotgan yaxshi tashqi ko‘rinish bo‘lib hisoblanadi”.

Ushbu norma yuk topshiruvchilarning qiziqishlarini kuchaytirish va ularning omonat saqlash shartnomasini tuzishdan manfaatdorligini orttirish hamda sud xatoliklarining oldini olish maqsadida kiritish uchun taklif etilmoqda

2. Vazirlar Mahkamasining 07.01.2011-yildagi 6-son qarori bilan tasdiqlangan Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari Ro‘yxatiga 90-pozitsiya sifatida “tovar ombori faoliyatini olib borish”ni kiritish lozim.

Amaldagi qonun hujjatlari, xususan, Fuqarolik kodeksi 39-40-moddalarida tovar omborini yuridik shaxs sifatida, shu jumladan yagona ishtirokchining jamiyati shaklida, yakka tartibdagi tadbirkorning tovar ombori sifatida faoliyat olib borish imkoniyatiga hech qanday to‘siqlar yo‘q.

Biroq, yuqoridagi ro‘yxatda ularning tovar ombori faoliyatini yuritish bilan bog‘liq faoliyat olib borishi ko‘rsatilmagan. Shunga ko‘ra, ushbu masala yuzasidan Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxatiga 90-pozitsiya sifatida yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar ombori faoliyatini yuritishini nazarda tutuvchi qo‘shimcha kiritish maqsadga muvofiq.

3. Hozirda mamlakatimizda lombardlar faoliyati rivojlanmoqda. Odatda lombardlar garov evaziga pulni qarz berish faoliyati bilan shug‘ullanadi. Shu bilan birga qonunchilikda, lombardlar omonat saqlash xizmatini ko‘rsatishi ham nazarda tutilgan. Tadqiqot davomidagi o‘rganishlar natijasida bugungi kunda lombardlar ashyoni omonatga saqlash xizmatlariga talab yo‘qligi va omonat saqlash shartnomalari lombardlarda tuzilmayotganligi aniqlandi. Shu munosabat bilan FKning lombardda omonat saqlashga oid 894-895-moddalarini chiqarib tashlash taklif etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ГАЙБУЛЛАЕВ АЛИШЕР ИСМАТОВИЧ

**ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ОТНОШЕНИЙ ПО
ХРАНЕНИЮ**

12.00.03. – Гражданское право. Предпринимательское право.
Семейное право. Международное частное право.

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора юридических наук (DSc)

Ташкент – 2024 год

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № B2018.1.DSc/Yu92.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме) на веб-сайте Научного совета (www.tsul.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Имомов Нурилло Файзуллаевич доктор юридических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Насриев Илхом Исмоилович доктор юридических наук, профессор Чориев Муроджон Шокирржонович доктор юридических наук, доцент Бозоров Сардор Сохибжонович доктор юридических наук, профессор
Ведущая организация:	Центр повышения квалификации юристов при Министерстве юстиции Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится 20 апреля 2024 года в 10:00 на заседании Научного совета DSc.07/30.12.2019.Yu.22.01 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: (99871) 233-66-36; факс: (99871) 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрировано за № 1244). (Адрес: 100047, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 13. Тел.: (99871) 233-66-36).

Автореферат диссертации разослан «5» апреля 2024 года.
(протокол реестра № 45 от «5» апреля 2024 года).

И.Р. Рустамбеков

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

Д.Ю. Хабибуллаев

Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, кандидат юридических наук, профессор

Б.К. Ходжаев

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в обеспечении непрерывности логистики и снабжения товаров уделяется особое внимание роли договора хранения. «Мировой рынок складского и складского лизинга сегментирован по типу (общее складирование и хранение, холодильное складирование и хранение, а также складирование и хранение сельскохозяйственной продукции), собственности (частные склады, общественные склады и таможенные склады), отрасли конечного пользователя (производство, потребительские товары, продукты питания и напитки, розничная торговля и здравоохранение) и географии»⁶. Роль складов в формировании запасов товаров и обеспечении их сохранности неопределима. Это в свою очередь, при существовании закона спроса и предложений, приводит к необходимости упорядочения договорных правоотношений между отправителем товаров и хранителем наряду с появлением и развитием новых видов хранения. В частности, расширение таких видов и способов хранения, как биобанки, self storage (личное хранение), консигнация, повышает спрос на создание правовых основ использования искусственного интеллекта и смарт-технологий при хранении товара на складе. Например, «Ожидается, что объем рынка складских и складских услуг вырастет с 691.74 млрд долларов США в 2023 году до 963.74 млрд долларов США к 2028 году при среднегодовом темпе роста 6.86% в течение прогнозируемого периода (2023-2028 гг.)»⁷. Это свидетельствует о росте спроса на хранение и повышении актуальности правового урегулирования данных отношений.

В мире в экономической сфере по изучению новых видов отношений договора по хранению уделяется особое внимание. Недаром Президент издал распоряжение о принятии конкретных мер относительно необходимости «внедрение современных инновационных, ресурсосберегающих технологий в процессы хранения и переработки готовой продукции»⁸. При этом, на данный момент проблемы передачи риска случайной гибели имущества в некоторых отношениях договора по хранению, практикуются вне правового поля, в свою очередь, данный вопрос требует изучения и анализа определенного научно-методического подхода.

В нашей стране в настоящее время деятельность по хранению имущества применяется во многих отраслях. «В условиях последовательно реализуемых в нашей стране правовых реформ считается приоритетной разработка соответствующих предложений по внедрению законодательства в сфере с требованиями международных стандартов»⁹. По этой причине, установление

⁶ Анализ размера и доли рынка складских и складских услуг - тенденции роста и прогнозы (2023 - 2028 гг.)
Source: <https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/warehousing-and-storage-services-market>

⁷ В том же месте

⁸ Постановление Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по широкому привлечению населения к предпринимательству и развитию семейного предпринимательства в регионах» от 07.03.2019 г. № ПП-4231. 9-пункт, четвёртый абзац. <https://lex.uz/docs/-4231028>

⁹ «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» Указ Президента Республики Узбекистан, от 28.01.2022 г. № УП-60

правовых норм в отношении новых видов хранения: хранения биоматериалов, хранения на консигнационном складе, хранения транспортных средств на платных автостоянках, использования технологий искусственного интеллекта на складе как обязательного требования к хранителям приобретает особую актуальность.

